



RUSDA FEODAL TARQOQLIKNING BOSHLANISHI

Ashuraliyeva Shohista

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7697917>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25- fevral 2023 yil

Ma'qullandi: 28-fevral 2023 yil

Nashr qilindi: 03-mart 2023 yil

KEY WORDS

Kiev yilnomasi, "O'tgan yillar ertaki", Rostov-Suzdal, Novgorod yeri, knyaz, Yuriy Dolgorukiy, Nevskiy.

ABSTRACT

Ushbu maqolada O'rta asrlar ya'ni aynan XII-XV asrlardagi rus knyazliklarining tashkil topishi va o'sha davrda tashkil topgan rus knyazliklarining ijtimoi-iqtisodiy va siyosiy hayoti haqida ma'lumtlar berilgan. Shuningdek, yangi shahar va markazlashgan davlatlarning tashkil topishi, ularning bir-biridan farqi ko'rsatib o'tilgan.

XIII-XV asrlardagi rus tarixini ko'pchilik tarixchilar qiziqib o'rgangan. Bu borada asar yozga olimlar va ularning asarlari: XI asrning Kiev yilnomasi. XI asrning Kiev yilnomasi. agar tasvirlangan voqealar bilan zamondosh bo'lmasa, X asr yilnomasidan ko'ra ularga yaqinroq. Rus yerlarida XI asr oxiri -XII asr boshlarida feodal jamiyat uzil-kesil barqarorlashdi. Mamlakatda boshlangan iqtisodiy taraqqiyot yirik yer egalari, knyaz va boyarlar (turk. vajar.amaldor-IX-XVII asrlarda rus davlatida mulkdorlarning oliy tabaqasi) ning kuchayishiga olib keldi. Novgorod, Polotsk, Smolensk, Rostov, Suzdal, Ryazan kabi yirik shaharlar o'z viloyatlarining mustaqil markazlari bo'lishga intildilar. Bundan tashqari Rus yerlarining fojiasi o'zaro qonli urushlar bilan ham bog'liq edi. Bundan foydalangan qipchoqlarning hujumi 1054-yilda rus yerlariga hujumi mamlakatdagi vaziyatni yanada murakkablashtirdi. Ayrim knyazlar qipchoqlar bilan ittifoq tuzib, qo'shni knyazliklarga qarshi yurish qilganlar. Rusdagi ko'pgina knyazlar bu vaziyatdan chiqishni, nizolarga chek qo'yishni o'ylay boshladilar. Kiyev knyazi Yaroslav Mudriyning o'g'li Vladimir Monamax 1097-yili Lyubechda knyazlarning birinchi sezd (yunon.majlis)ini chaqiradi. Bu sezd "Har kim o'z yurtiga ega bo'lsin" deb qaror chiqardi. Bu esa feodal tarqoqlikning boshlanishini tantanali e'lon qilinishi edi. Solnomachi Nestor 1132-yili "Butun Rus yeri bo'linib ketdi" deb yozgan edi. Rusda feodal tarqoqlik davri boshlandi. Ayni paytda Kiyev knyazining mavqei pasaydi. Kiyev Rusidan mustaqil bo'lgan yerlar: Chernigov, Polotsk, Pereyaslav, Galich, Volin, Smolensk, Ryazan, Rostov-Suzdal, Novgorod yeri, Kiyev kabi bir qator mayda knyazliklar tashkil topdi. Kiyev knyazligi 15 ta mustaqil knyazlikka bo'linib ketib, ularning har qaysisida knyazlik sulolasi qaror topdi va hokimiyat endi boyarlarning ixtiyorsiz merosi tariqasida avloddan-avlodga o'tib turdi. Ushbu alohida knyazliklarning iqtisodiy va madaniy rivojlanishi ancha tez muvaffaqiyatli borayotgan edi-yu, lekin bu tuzumning 4 ta salbiy jihati bor edi, bular quyidagilar:

1. Knyazliklarga bo'linish knyazlar o'rtasidagi o'zaro urushlar va janjallarni to'xtatmadi.

2. Rusning mudofaa qobiliyatini zaiflashtirdi.

3. Knyazliklar vorislar orasida maydalashib ketdi va XIII asrning boshiga kelib Botuxon bosqini arafasida 50 ta knyazlik tashkil topdi.

4. Juda tez orada knyazlar bilan mahalliy boyarlar o'rtasida nizolar kelib chiqishga olib keldi.

XII asrga kelib joylarda feodallar juda boyib ketdi. Ular o'zlarining drujinachi (knyaz yoki qirol atrofida birlashgan va jamiyatning imtiyozli qatlamini tashkil etgan jangchilar otryadi)lariga ega bo'lib, ekspluatatsiya qilinuvchilarni bostirib turish uchun yetarlicha kuchga ega bo'ldilar. Markazdan qochish jarayoni kelib chiqdi va XII asrda (1132-yilda) Qadimgi Rus davlati inqirozga uchrab, 15 ta mustaqil knyazlik va o'lkalarga bo'linib ketdi:

1) Vladimir,

2) Suzdal,

3) Polotsk-Minsk,

4) Turov-Minsk,

5) Smolensk,

6) Muran,

7) Ryazan,

8) Chernigov,

9) Kiyev,

10) Pereyaslavl,

11) Galich,

12) Volin,

13) Tmutarakan knyazliklari,

14) Novgorod respublikasi va undan keyinchalik ajralib chiqqan

15) Pskov knyazligi bo'lgan. Bulardan eng yiriklari: Galich-Volin, Vladimir-Suzdal knyazliklari va Novgorod respublikasi bo'lgan. Vladimir-Suzdal knyazligi hududida o'rmonlar ko'p bo'lib, XII asrda Moskva o'rmoni yonida joylashgan. XI asr oxiridan bu hududga Novgorod va Smolensk yerlaridan aholi kelib joylashadi. Bu yerda Zvenigorod, Galich, Vishgorod, Starodub, Moskva, Nijniy Novgorod, Dmitrev, Kostroma, Buyuk Ustyug, Gorodets kabi shaharlar vujudga keladi. O'lkada XIII asrga kelib 80 ga yaqin shaharlar bo'lgan. 1097-yilda Lyubekda bo'lib o'tgan o'lka feodallar sezding qarori bilan Kiyev Rusining bo'linishi natijasida Suzdal yerlari Vladimir Monomaxga o'tadi. Lekin u bu yerlarni boshqarishni o'z o'g'li Yuriy Dolgorukiya (1125-1157-yillar) beradi. Yuriy Dolgorukiy Kiyevdan mustaqil birinchi knyaz edi. U Suzdalda yashab, katta yerlarni egallab oladi, knyazlik markazi qilib Suzdal shahrini tanlaydi. Knyazlik yerlaridagi Kuchkov qishlog'ida 1147-yil bahorida Yuriy Dolgorukiy Kiyev ustidan erishilgan g'alabalardan birini nishonlagan. U ko'p shaharlarga, jumladan 1147-yilda Moskvaga asos soladi. Moskva deb atala boshlagan bu joyda birinchi yog'och qal'a 1156-yilda qurildi. U o'lgandan keyin o'g'li Andrey Bogolyubskiy (1157-1174-yillar) Rostov-Suzdal knyazi bo'lib qoldi. U poytaxtni Vladimir-Klyazma shahriga ko'chiradi. Shundan so'ng bu davlat Vladimir-Suzdal knyazligi degan nom oladi. U 1169-yili Kiyevni egallashga intilgan knyazlarga zarba beradi. Knyaz Andrey Novgorodda o'zini kishisini qo'yadi. Rostov-Suzdalda boyarlarga qarshi kurashdi. Andrey ni Vladimir shahri qo'llaydi. Natijada u poytaxtni Vladimirga ko'chirib, uning yaqinidagi Bogolyubovoda o'z qarorgohini bunyod etgan, unga Bogolyubskiy laqabi ham shu joy

nomidan olingan. Andrey Bogolyubskiy o'z hokimiyatini har tomonlama mustahkamlash choralari ko'rib, boyarlarni terror qiladi. Natijada boyarlar fitna uyushtirib uni 1174-yilda o'ldiradilar.

Shundan keyin ukasi Vsevolod Yurevich Bolshoye Gnezdo (Katta Uya), chunki uning o'g'illari ko'p edi (1176-1212-yillarda boshqargan) boyarlarning chiqishlarini shafqatsiz bostirdi, boyarlarning fitnalarida qatnashganlarni ayovsiz jazoladi, Chernigov va Smolensk knyazliklarini o'ziga bo'ysundirdi. Vsevolod boyarlarga qarshi kurashgan knyaz, savdogar va boy hunarmandlarga imtiyozlar beradi. Vsevolod Novgorodga o'zi yuborgan knyaz, amaldor va noiblarni qabul qilishga majbur qiladi. Kiyev knyazi Vsevolodning hokimiyatini tan oladi. Sharqda Vsevolod lashkari bolgarlarga qarshi yurish qiladi. Vladimir shahri Volga daryosi orqali Kavkaz va Xorazm bilan savdo-sotiq ishlarini olib borgan. Vsevolod vafotidan keyin knyazlikda feodal urushlar boshlandi.

Vsevolodning o'g'illaridan biri Konstantin 1216-yili buyuk knyaz bo'ladi. Ammo knyazlik mustaqil mulklarga bo'linib, ularni Vsevolod o'g'illari boshqarishgan. Faqat Yuriy Vsevolodovich davrida (1219-1238) knyazlik kuchayib sharq tomonga kengaygan. Bolgarlarga qarshi yurishdan so'ng, 1226-yili Volga sohilida yangi Nijniy Novgorod shahriga asos solinadi. Yuriy va boshqa mahalliy knyazlar buyuk Novgorodda hamda Ryazan va Smolensk knyazliklarini bo'ysundirishga kirishadi. Suzdal knyazi Yaroslav Vsevolodovich 1236-yil Kiyev knyazligini olsa, uning o'g'li Aleksandr (Nevskiy) buyuk Novgorod knyazi bo'lgan.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, Rus davlati yagona davlat bo'lib tashkil topguniga qadar bo'lgan davrda feodal tarqoqlik, knyazliklar va imperiya bosqichlarini bosib o'tdi. Hozirgi o'rgangan davrimiz bu feodal davri, uning o'z nihoyasiga yetishi va kichik-kichik knyazliklarning tashkil topishi, ularning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, hukumdorlari siyosati, siyosiy kurashlar va davlatlar o'rtasidagi janglarni o'z ichiga olgan. Feodal parchalanish davrida adabiyotdagi etakchi g'oya rus erining birligi g'oyasi edi. Pskov, Novgorod, Ipatiev, Laurentian va boshqa yilnomalar knyazlik o'rtasidagi nizolarning ta'riflari, yagona kuchli grand-gertsog hokimiyati g'oyasi bilan to'la. Bu davr asarlari orasida adabiyotimiz faxri bo'lmish "Igor yurishlari" alohida o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Антология древнекитайский философии. М.: 1972—73. т. 1-2; Конрад Н.С. Избранное. Синология. М.: 1977;
2. Античная литература/Под ред. А. А. Тахо-Годи. – М.: 1980;
3. Дельбрюк Г. История военного искусства в рамках по-литической истории . I–II. – М., – Л.: 1936–1937;
4. Источники Витрувий Поллион, Марк. Десять книг об архитектуре/ Пер. Ф.А.Петровского. – М.: 2003
5. Ладынин.И.А. и др. История древнего мира: Восток, Греция, Рим. «Слово», «Эксмо».-М.: 2004;
6. Xolto'rayevich, M. A. (2022). The Last Period in the Resistance Movement in Surkhandarya and the Repression of the National Forces. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY, 3(12), 17-20.
7. Менглибоев, А. (2021). Сурхон воҳасида миллий озодлик ҳаракати натижалари ва

оқибатлари. Academic research in educational sciences, 2(4), 1655-1674.

8. Nazirov, B. (2022). Ўзбекистонда жисмоний маданият ва спорт тарихи (XX аср–XXI аср бошларида Сурхон воҳаси мисолида). Scienceweb academic papers collection.

9. Nazirov, B. (2020). Ўзбекистонда жисмоний маданият ва Спорт тарихини (XX аср–XXI аср бошларида Сурхон воҳаси мисолида) ўрганишнинг долзарблиги. Scienceweb academic papers collection.

10. Менглибоев, А. Х. (2021). Сурхондарё округида миллий кучларнинг қатағон қилиниши. ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ, 4(11).

11. Mengliboyev, A. X. R. (2020). Tarixiy shaxslarning milliy manfaatlar uchun kurashi tarixidan. Утмишга назар, 215-219.

